O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — INSON QADRI, HUQUQ VA FAROVON JAMIYATNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Kurbanov Ravshan Raimjonovich

TDYU huzuridagi H.K. Muhitdinova nomidagi akademik litsey tarix fani o‘qituvchisi

E-mail: kurbanovravshan@gmail.com

Zokirjanov Akbarali

TDYU huzuridagi H.K. Muhitdinova nomidagi akademik litsey o‘quvchisi

E-mail: akbaralizokirjanov98@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakat suvereniteti, milliy davlatchilik, demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlash, ijtimoiy adolat, iqtisodiy erkinlik, qonun ustuvorligi hamda davlat organlari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari tahlil qilingan. Konstitutsiyaviy islohotlarning inson manfaatlariga yo‘naltirilgani va farovon jamiyat barpo etishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson qadri, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, suverenitet, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, konstitutsiyaviy islohotlar, farovon jamiyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль Конституции Республики Узбекистан в обеспечении государственного суверенитета, укреплении национальной государственности, развитии демократии и формировании гражданского общества. Также анализируются конституционные положения новой редакции Конституции, направленные на обеспечение прав и свобод человека, защиту его чести и достоинства, социальной справедливости, экономической свободы, верховенства закона и правовых основ деятельности государственных органов. Особое внимание уделяется человекоцентричной направленности конституционных реформ и их значению в построении благополучного общества.

Ключевые слова: Конституция, человеческое достоинство, права человека, верховенство закона, суверенитет, демократическое государство, гражданское общество, социальная справедливость, конституционные реформы, благополучное общество.

Abstract: This article examines the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in ensuring national sovereignty, strengthening statehood, promoting democratic development, and building civil society. It also analyzes the constitutional provisions of the new edition of the Constitution concerning the protection of human rights and freedoms, human dignity, social justice, economic freedom, the rule of law, and the legal foundations of public authorities. Particular attention is paid to the human-centered nature of constitutional reforms and their significance in building a prosperous society.

Keywords: Constitution, human dignity, human rights, rule of law, sovereignty, democratic state, civil society, social justice, constitutional reforms, prosperous society.

Konstitutsiya har qanday mustaqil davlatning suvereniteti, milliy davlatchiligi, siyosiy-huquqiy tizimi va ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat hokimiyati organlarining vakolatlari hamda mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda, Konstitutsiya nafaqat davlatning asosiy qonuni, balki xalqning siyosiy irodasi, tarixiy xotirasi va kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim huquqiy mezondir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz tarixida tub burilish yasagan muhim siyosiy-huquqiy voqea bo‘ldi. Zero, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Asosiy Qonun mustaqil O‘zbekistonning xalqaro maydondagi huquqiy maqomini mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam poydevorini yaratdi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining shakllanishida xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik tajribasi, milliy qadriyatlari va tarixiy an’analari bilan bir qatorda, dunyoning ilg‘or konstitutsiyaviy tajribasi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Shu sababli Asosiy Qonunimiz

milliy davlatchilik an’analari va umume’tirof etilgan xalqaro huquqiy tamoyillarning uyg‘un ifodasi sifatida shakllandi[1].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya: inson qadri va huquqlarining ustuvorligi

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning markazida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati turadi. Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning konstitutsiyaviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo‘lim, 27 bob va 155 moddadan iborat bo‘lib, unda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan normalar sezilarli darajada kengaytirildi[2].

Mazkur konstitutsiyaviy yangilanishlarning eng muhim jihati davlat va jamiyat munosabatlarida ustuvor yondashuvning o‘zgarishidir. Ya’ni ilgari qo‘llanilgan «davlat — jamiyat — shaxs» tamoyili o‘rniga «inson — jamiyat — davlat» tamoyili asosiy g‘oya sifatida ilgari surildi. Bu esa davlat faoliyatining bosh maqsadi inson manfaatlarini ta’minlash, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat ekanini anglatadi.

Xususan, Konstitutsiyaning 54-moddasida insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi ekanligi belgilangan. Ushbu norma davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy mezoni inson manfaatlari bo‘lishi lozimligini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlaydi.

Inson huquqlarining ustuvorligi, shaxs sha’ni va qadr-qimmatining daxlsizligi demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada insonning yashash huquqi, shaxsiy erkinligi, daxlsizligi, mulk huquqi, vijdon erkinligi, fikrlash va so‘z erkinligi, ta’lim olish hamda ijtimoiy ta’minot olish huquqlari mustahkamlangan.

Ayniqsa, inson huquqlarini ta’minlashda xalqaro huquqiy hujjatlarning ahamiyati katta. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida BMTning Inson huquqlari umumjahon

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan (dastlabki tahrir).
[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali qabul qilingan. – Toshkent, 2023.

deklaratsiyasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktida belgilangan umume’tirof etilgan prinsiplar bilan uyg‘un normalar o‘z aksini topgan[3].

Bu esa mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlarini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Konstitutsiya — milliy birlik, tenglik va bag‘rikenglik kafolati

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat sifatida jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat tamoyillariga alohida e’tibor qaratadi. Konstitutsiyamizda ushbu qadriyatlarning mustahkamlanishi mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim huquqiy asosidir.

Jumladan, Konstitutsiyaning 4-moddasida davlat tili o‘zbek tili ekanligi belgilanishi bilan birga, mamlakat hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish hamda ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish davlatning majburiyati sifatida mustahkamlangan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 19-moddasida barcha fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeyidan qat’i nazar qonun oldida tengligi kafolatlangan.

Mazkur normalar jamiyatda insonlarni millati, dini, tili yoki ijtimoiy holatiga qarab kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, Konstitutsiya nafaqat insonning alohida huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy hujjat, balki jamiyatda ijtimoiy birdamlik, milliy birlik va o‘zaro hamjihatlikni ta’minlovchi muhim siyosiy-huquqiy kafolat hamdir.

Konstitutsiyaviy kafolatlarning amaliy ijrosi va davlat institutlarining mas’uliyati

Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarning hayotda to‘laqonli ta’minlanishi samarali davlat boshqaruvi hamda mustahkam huquqiy mexanizmlarni talab qiladi. Chunki huquqiy normaning mavjudligi bilan uning amalda bajarilishi bir-biridan farq qiladi. Shu

[3] Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-rezolyutsiyasi.

bois konstitutsiyaviy qoidalarni hayotga tatbiq etish davlat organlari, sudlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligini taqozo etadi.

Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Parlament tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar Konstitutsiya normalari va prinsiplariga muvofiq bo‘lishi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qilishi zarur. Shu bilan birga, qonun ijodkorligi jarayonida huquqiy ekspertiza, xalqaro standartlarga muvofiqlik va jamoatchilik fikrini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik kengashlari ham davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu borada «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonun fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlashning huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi [5].

Bundan tashqari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) va Bola huquqlari bo‘yicha vakil kabi institutlar inson huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu institutlarning faoliyati fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, inson huquqlari buzilishining oldini olish, xalqaro majburiyatlarning bajarilishini monitoring qilish va aholining huquqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, Konstitutsiyaning hayotiy kuchi nafaqat unda belgilangan normalarning mazmuni, balki ularning amaliyotda qay darajada ta’minlanishi bilan ham belgilanadi.

Konstitutsiya — ijtimoiy adolat va farovon jamiyatning huquqiy asosi

Farovon va barqaror jamiyatni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri inson huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va iqtisodiy erkinlik uchun zarur huquqiy sharoitlarni yaratishdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aynan shu yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi mustahkamlandi. Bu esa davlat zimmasiga fuqarolarning munosib hayot kechirishi, ijtimoiy

himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha muhim majburiyatlarni yuklaydi[4].

Xususan, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa guruhlarning huquqlarini ta’minlash, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, ta’lim olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish, munosib ish haqi olish va ijtimoiy ta’minotga ega bo‘lish kabi huquqlarning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bu borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan «Inson qadri uchun» tamoyili muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur tamoyil davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarida inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish, aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan islohotlarning asosiy g‘oyasiga aylandi[5].

Shu sababli Konstitutsiyaning ijtimoiy yo‘nalishi faqat ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. U har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratish, bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishni ham nazarda tutadi.

Iqtisodiy erkinlik va barqaror taraqqiyotning konstitutsiyaviy kafolatlari

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, investitsiyaviy jozibadorligi va tadbirkorlik muhitining rivojlanishi ham mustahkam konstitutsiyaviy asoslarni talab etadi. Chunki iqtisodiy munosabatlarda qonun ustuvorligi, xususiy mulk daxlsizligi va erkin raqobatning ta’minlanishi jamiyat farovonligining muhim omillaridan biridir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mulk huquqi, tadbirkorlik faoliyati ekanligi, iqtisodiy faoliyatda teng sharoitlar yaratish va halol raqobatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normalar mustahkamlangan.

[4] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. BMT, 1966-yil 16-dekabr.
[5] O‘zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2018-yil 12-aprel, O‘RQ-474-son.

Xususiy mulkning huquqiy himoyasi fuqarolarning iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish uchun zarur sharoitlarni shakllantiradi. Bunda davlatning asosiy vazifasi iqtisodiy faoliyat uchun adolatli va barqaror huquqiy muhitni ta’minlashdan iborat.

Shuningdek, innovatsion rivojlanish, inson kapitaliga investitsiya kiritish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash zamonaviy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Xalqaro standartlar va konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati

bugungi globallashuv sharoitida davlatning demokratik taraqqiyoti va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzi ko‘p jihatdan inson huquqlariga rioya etilishi, qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvining ochiqligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar ham xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari bilan uyg‘un holda olib borilmoqda. Xususan, inson huquqlarini himoya qilish, sud-huquq tizimini takomillashtirish, so‘z va axborot erkinligini ta’minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish ushbu jarayonning muhim yo‘nalishlaridir[6].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti, milliy davlatchiligi va demokratik taraqqiyotining mustahkam huquqiy poydevoridir. U nafaqat davlat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi asosiy qonun, balki inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim strategik hujjat hamdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatida inson qadri, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, tenglik va erkinlik tamoyillarining ustuvor o‘rin egallashi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi.

Ayniqsa, inson huquqlarining davlatning oliy maqsadi sifatida e’tirof etilishi, O‘zbekistonning ijtimoiy davlat maqomining mustahkamlanishi, fuqarolarning iqtisodiy va

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».

siyosiy huquqlariga doir kafolatlarning kengaytirilishi Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Eng muhimi, Konstitutsiya har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan, jamiyatda adolat va tenglikni qaror toptiradigan, farovon kelajak sari yo‘l ko‘rsatadigan bosh huquqiy mezondir. Uni chuqur o‘rganish, mazmun-mohiyatini anglash va unda belgilangan normalarga kundalik hayotda amal qilish har bir fuqaroning nafaqat huquqiy madaniyati, balki fuqarolik burchi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan (dastlabki tahrir).

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali qabul qilingan. – Toshkent, 2023.

3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-rezolyutsiyasi.

4. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. BMT, 1966-yil 16-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2018-yil 12-aprel, O‘RQ-474-son.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».

7. U.S. Department of State. 2023 Country Reports on Human Rights Practices: Uzbekistan. Washington, 2024.